

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIGA INKLYUZIV TA'LIMNI OLIB KIRISHDAGI ENG SAMARALI USULLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14901327>

Chuponkulova Sitora Bozor qizi

Sariosiyo tumani 20-DMMT direktori o'rinnbosari

Annotatsiya

Inkluziv ta'lism jamiyatni yanada adolatli va hamkorlikka asoslangan qilishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayonning boshqarilishi esa ta'lism muassasalari va tizimlarida maxsus yondashuv va tamoyillarga asoslanadi. Inkluziv ta'lism nafaqat maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun qulay ta'lism muhitini yaratish bilan cheklanmaydi, balki jamiyatning barcha a'zolari uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashni o'z ichiga oladi. U shuningdek, boshqa o'quvchilarda ham ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va xilma-xillikka hurmat bilan qarashni shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Shu sababdan, inkluziv ta'lism faqat alohida shaxslar manfaatlari uchun emas, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar

inklyuziv ta'lism,ijtimoiy ko'nikmalar,moslashuvchan ta'lism,differensial ta'lism,tamoillar,UNICEF.

Maktabgacha ta'lism tizimini yanada takomillashtirish, bolalaring sifatli maktabgacha ta'limgan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lism xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lism tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi. Inklyuziv ta'lism vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lism taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy mакtabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lism tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday mакtabda ta'lism olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli

yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. Bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak. UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qibiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lislari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy mакtabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday mакtabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- 1) Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi.
- 2) Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.
- 3) Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.
- 4) Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.
- 5) Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.
- 6) Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.
- 7) Malakaviylik tamoyili.

Inkluziv ta'lim – bu barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki aqliy imkoniyatlari cheklanganlar, kam ta'minlanganlar, milliy ozchilik vakillari, qochqinlar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun bir xil ta'lim olish imkonini beruvchi jarayon.

Inkluziv ta'lim jamiyatni yanadaadolatli va hamkorlikka asoslangan qilishda muhim o'rinni tutadi. Bu jarayonning boshqarilishi esa ta'lim muassasalari va tizimlarida maxsus yondashuv va tamoyillarga asoslanadi. Inkluziv ta'lim nafaqat maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun qulay ta'lim muhitini yaratish bilan cheklanmaydi, balki jamiyatning barcha a'zolari uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashni o'z ichiga oladi. U shuningdek, boshqa o'quvchilarda ham ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va xilma-xillikka hurmat bilan qarashni shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Shu sababdan, inkluziv ta'lim faqat alohida shaxslar manfaatlari uchun emas, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi.

Inkluziv ta'limni boshqarishning asosiy tamoyillari Inkluziv ta'limni boshqarish jarayonida bir qator tamoyillarga amal qilish talab etiladi. Bu tamoyillar jamiyatda ta'lim olishga bo'lgan teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash,

o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish va ularning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashishni o'z ichiga oladi. Teng huquqlilik va imkoniyatlarning ta'minlanishi Inkluziv ta'lim boshqaruvi tizimida har bir o'quvchiga ta'lim olish uchun teng imkoniyatlar yaratish tamoyili asosiy ahamiyatga ega. Bu tamoyilga ko'ra, barcha o'quvchilar, ularning jismoniy yoki aqliy imkoniyatlaridan qat'i nazar, teng sharoitlarda ta'lim olish huquqiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun ta'lim muassasalarida maxsus moslashuvchan o'quv dasturlari, didaktik materiallar va texnologiyalar joriy qilinishi zarur. Shaxsiy yondashuv tamoyili Har bir o'quvchi alohida shaxs sifatida qabul qilinishi kerak. Ularning individual ehtiyojlari va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda ta'lim jarayoni tashkil etilishi zarur. Bu o'quvchilarni o'z qobiliyatlariga mos keladigan tarzda qo'llab-quvvatlashni, ularga individual yondashuvni talab qiladi. Boshqaruv jarayonida bu tamoyilga rioya qilish uchun moslashuvchan va differensial ta'lim uslublarini joriy etish lozim. Ta'limning moslashuvchanligi va universalligi Inkluziv ta'limni boshqarishda yana bir muhim tamoyil – bu ta'lim jarayonining moslashuvchan va universal bo'lishidir. Bu shuni anglatadiki, barcha bolalar uchun ta'lim mazmuni va uslublari turli ehtiyojlarga moslashtirilishi kerak. Ta'lim dasturlari va o'quv materiallari turli darajadagi o'quvchilarga mos ravishda takomillashtirilishi, sinflarda o'qituvchilar tomonidan turli o'quv usullaridan foydalanish talab etiladi. Jamiyat va oilaning o'rni Inkluziv ta'lim jarayonida jamiyat va oila muhim ahamiyatga ega. Ta'limni boshqarish jarayonida oilalar bilan yaqin hamkorlik qilish, ularni farzandlarining ta'lim va rivojlanish jarayoniga faol jalg qilish lozim. Ota-onalar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini chuqr bilishadi, shu sababli ular o'qituvchi va pedagoglar bilan hamkorlik qilib, ta'lim jarayonini yaxshilashda yordam bera olishadi. O'qituvchilarning malakasini oshirish Inkluziv ta'limni boshqarishda o'qituvchilarning malakasini oshirish tamoyili ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchilar inkluziv ta'limga mos bo'lishi uchun maxsus pedagogik ko'nikmalar va bilimlarga ega bo'lishi kerak. Shu sababli, ularga doimiy ravishda professional rivojlanish uchun treninglar, seminarlar va malaka oshirish dasturlari taqdim etilishi zarur.

Xalqaro tajriba va standartlarga moslashuv Inkluziv ta'limni boshqarishda xalqaro standartlar va tajribalarga e'tibor qaratish lozim. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda inklyuziv ta'lim muvaffaqiyatli tarzda joriy etilgan va ularning tajribasi biz uchun juda foydali bo'lishi mumkin. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim siyosati, qoidalar va tavsiyalar inklyuziv ta'lim jarayonini tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Inkluziv ta'limni boshqarishdagi muammolar Inkluziv ta'limni boshqarish jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, moddiytexnik bazaning yetishmasligi, o'qituvchilar va

pedagoglarning yetarli darajada malaka oshirmasligi, jamiyatdagi stereotiplar va kamsitishlar bunga to'siq bo'lib kelmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimidagi byurokratik to'siqlar ham inkluziv ta'limning samarali boshqarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Inkluziv ta'limni muvaffaqiyatli boshqarish uchun birinchi navbatda ta'lim tizimida islohotlar amalga oshirilishi kerak. O'quv dasturlarini takomillashtirish, moslashuvchan ta'lim usullarini joriy etish, ta'lim muassasalarining moddiytexnik bazasini rivojlantirish va o'qituvchilarning malakasini oshirish ishlari tizimli ravishda amalga oshirilishi kerak. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim tamoyillari jamiyatda keng targ'ib qilinishi va qo'llab-quvvatlanishi zarur. Inkluziv ta'lim jamiyatda teng huquqlar va imkoniyatlarni ta'minlash, har bir bola uchun qulay ta'lim muhitini yaratish uchun muhim tizimdir. Uni muvaffaqiyatli boshqarish uchun yuqorida bayon qilingan tamoyillar asosida ish olib borish lozim. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni o'rganish va jamiyatning faol ishtiroki ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risidagi qarori -4860 13.10.2020
3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . - Казань, 2013
4. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010